

**MUTTAXASSISLIK FANLARNING NAZARIY VA AMALIY  
MASHGULOTLARINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA  
TASHKIL ETISH**

**Gulchehra Saidova Erkinovna**

**Gulchehra Saidova Alisherovna**

*Toshkent axborot texnologiyalari universiteti,*

*gulisaidova62@gmail.com*

*Toshkent axborot texnologiyalari universiteti,*

*saidguli198927@gmail.com*

Ma'lumki, bugungi kunda mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni bo'yicha 2017-2021 yillarga mo'jallangan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasida "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mexnat bozorining zamonaviy extiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish" ustuvor vazifa etib belgilandi. Shuningdek 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son, 2017 yil 29 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'gisida"gi PF-5264-son, 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli isloxlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'grisida" PQ-3775-son Qarorlari xamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-xuquqiy xujjatlarda ta'lim tizimini xalqaro tendensiyalar orqali tubdan islox qilish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, xorijiy ilgor tajribalari asosida ta'lim mazmuni fan-texnika va texnologiya borasida erishilgan yangi yutuqlarini xisobga olgan xolda muntazam takomillashtirib borish, yangi an'anaviy va noan'anaviy o'quv adabiyotlarni

yaratish, ta'lim-tarbiya jarayonlarida o'qitishning eng ilgor pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish kabi vazifalar belgilangan. Globallashuv sari borayotgan hozirgi dunyoda davlatning xalqaro raqobat jarayoni shartlariga tez moslashuvi uning muvaffaqiyatli va barqaror rivojlanishining asosiy omili xisoblanadi. Davlatning bugungi va istiqboldagi barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi omillar ta'lim soxasining rivojlanishiga xam bevosita bog'liq. Shu sababli mustaqillikning ilk yillaridanoq jamiyat va iqtisodiyotni tubdan isloh qilish jarayonida ta'lim soxasida jaxonda munosib o'rinni egallashga qaratilgan yangi uzluksiz ta'lim tizimini yaratish va rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Ta'limning ustuvor vazifalaridan biri, bu — ta'lim oluvchi ongi shururida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni qaror toptirish, unda kelajakda jamiyatda o'zining munosib o'rnini topishi uchun amaliy hayotiy kunikmalarni shakllantirish ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga faol kirishishi uchun shart- sharoitlarni yaratishdan iborat. Talim muassasalarida yoshlarning shaxsiy rivojlanishi ularning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi, faolligi, munosabatlarining chuqurlashib xamda boyib borishi, xarakteri va dunyoqarashlarining barqarorligi, o'z-o'zini nazorat qilish va tarbiyalashga bo'lgan extiyojlarining shakllanishi kabi xolatlar bilan tavsiflanadi. Bo'lajak kasb egalari uchun ta'lim muassasalarida ta'lim olish jarayoni — bu insonda mexnat faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishda axamiyatli sanalgan kasbiy bilim, kasbiy sifat, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish hamda o'z-o'zini takomillashtirishning eng maqbul davridir. Ta'lim oluvchilar ushbu jarayonda bilimlarni jamlash, saqlash, uzatish, ularning mantiqiy tuzilmasini yaratish va istiqbolda kasbiy faoliyatini tashkil etishda ulardan samarali foydalashish kabi xolatlarni o'zida mujassam ettiradi. Bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligi rivojlanishi uning o'quv-pedagogik vaziyatlarda aqliy, predmetli-amaliy va motivatsion omillar bilan bogliq o'ziga xos xususiyatlarining ifodalanishida yorqin namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, ushbu omillar ko'plab umumiy jihatlarga xam ega. Bu soxadagi maxsus izlanishlar natijalari shuni ko'rsatadiki, kasbiy faoliyatda kasbiy kompetentlik muxim o'rin tutadi. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisining kasbiy kompetentligi o'z mutaxassisligi bo'yicha egallashi kerak bo'lgan kompetensiyalari, muxim

shaxsiy sifatlari va individual psixologik xususiyatlari majmui bo'lib, muntazam ravishda bilim olishga, o'z-o'zini takomillashtirishga, kasbiy bilimlarni bevosita amaliyotda qo'llay olishga, yangi innovatsion texnologiyalardan boxabar bo'lish bilan biriga ularni amaliyotga tadbiq eta olish, ishga ijodiy va mas'uliyatli yondashish, o'z faoliyatiga aloqador barcha muammolarni tizimli ravishda tushunish, vazifa qo'ya bilish va aniq muammolarga yechim topa olishi demakdir.

Oliy ta'lim muassasalarida nazariy va amaliy mashg'ulotlarni innovatsion texnologiyalari asosida tashkil etish va o'tkazishni taqozo etadi. Xozirgi kunda ta'limning turli yo'nalishlarida umumkasbiy va maxsus fanlarni o'qitish "Master klass"lar orqali tashkil etilib o'tkazilmoqda. Master klass mashg'ulotlarini bevosita oliy o'quv yurtlarida auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda, shuningdek, uni internet tizimi orqali, masofaviy o'qitish orqali ham tashkil etish mumkin. "Master klass"- bu mashg'ulot shakli bo'lib, mashg'ulot ishining moxir ustalari tomonidan olib boriladi. Mashg'ulot ma'lum bir soxaning yetuk mutaxassisi, o'z ishining moxir ustalari (masterlar) tomonidan o'tkaziladi. Master klasslarni oddiy mashg'ulot turlardan farqi shundaki, "Master klass" larda bevosita o'z ishining ustalari faoliyati bilan yaqindan tanishish, o'rganish imkoniyatini beradi. Biz o'z makolamizda "Romli-osma tizimli avtoyo'l o'tkazgichlari qurish" mavzusidagi amaliy mashg'ulotini "Master klass" shaklida o'tkazish metodikasini yoritmoqchimiz. Mashg'ulotning asosiy maqsadi-yoshlarimiz ongida yuksak ma'naviy komillik, yurt ozodligi, obodligi va xalqimizning farovonlik yo'lida fidokorona mexnat qilish, o'ziga va atrofdagilarga nisbatan talabchan bo'lish, o'zida irodaviy sifatlarni tarbiyalay olish, intiluvchanlik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik, ijodkorlik hamda mustaqil fikrlash layoqatiga ega bo'lish kabi xislatlarni uygotishdan iboratdir. Mashg'ulotni o'tkazish bosqichlari: tashkiliy qismda "Romli-osma tizimli avtoyo'l o'tkazgichlari qurish" mavzusining maqsadi va vazifasidan kelib chiqqan xolda tashrif buyuruvchi maxoratli mutaxassisni aniqlash va u bilan kelishish, talabalarni psixologik jixatdan uchrashuvga tayyorlash, kerakli o'quv vositalarini tayyorlash ishlari amalga oshiriladi.

Kirish qismida mashg'ulot maqsadi va kutilayotgan natijalarni elon qilish, mashg'ulotni amalga oshirish ketma-ketligini tushuntirish, tashrif buyurgan mexmon bilan tanishtirish- u xaqida qisqacha ma'lumot berish xamda jarayoni kuzatish moderatsya qilish fan o'qituvchisi tomonidan amalga oshiriladi. Mashg'ulotning asosiy qismida mexmon tomonidan suhbat olib borish va u tomonidan "Romli-osma tizimli avtoyo'l o'tkazgichlari qurish" masalalari yoritiladi. Talabalar nigoxida "Romli-osma tizimli avtoyo'l o'tkazgichlari qurish" ishlari qanday amalga oshiriladi va jarayondan uchrashi mumkin bo'lgan xato va kamchiliklar xamda ularni oldini olish bo'yicha tavsiyalar beradi.

Mashg'ulotning yakuniy qismida talabalar o'rtasida "Kelajakga sayoxat" tarzida siz o'zingizni zamonaviy "Romli-osma tizimli avtoyo'l o'tkazgichlari"ni qanday tasvirlaysiz g'oya doirasida savol-javoblar o'tkaziladi. Shundan so'ng keyingi mashg'ulotlarda o'tkaziladigan tanlovda ishtirok etish uchun loyixa tayyorlash vazifasi beriladi [3].

Xulosa qilib aytish mumkinki, yoshlari ongida yuksak ma'naviy komillik, yurt ozodligi, obodligi va xalqimizning farovonlik yo'lida fidokorona mehnat qilish, o'ziga va atrofdagilarga nisbatan talabchan bo'lish, o'zida irodaviy sifatlarni tarbiyalay olish, intiluvchanlik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik, ijodkorlik hamda mustaqil fikrlash layoqatiga ega bo'ladilar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Ergashev, A. S., & Raximjonov, Z. Q. (2022). Mutaxassislik fanlarini oqitishda innovatsion texnologiyalarning qollanilishi. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(5), 31-34.
2. Muslimov, N. A., & Umarova, Z. A. (2021). The role of media resources in the process of self-education. International Journal Papier Public Review, 2(1), 49-53.
3. Muslimov, N. A., Usmonboeva, M. H., Sayfurov, D. M., & Turaev, A. B. (2015). Innovative educational technologies. Educational-methodical manual.-Tashkent.

4. Ulug'bek qizi Arzikulova, C., & qizi Latifjonova, M. L. (2022). ZAMONAVIY TA'LIM METODLARI–TA'LIM SAMARADORLIGI KAFOLATI. Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar, 2(17), 153-160.

5. Energy menegment and organization of the management system at the enterprise. International Scientific Journal “Engineering Mathematics”. Volume 4, Issue 2, 2022. ISSN:1687 – 6156. - P. 39-43 <http://iejemta.com>\. G.A. Saidova.